

UO'K 008(071):63+64"15"

**MILLIY MA'NAVIYATIMIZDA YURT TINCHLIGI VA VATAN RAVNAQI
TAMOYILINING O'RNI**

Xolbekova Dilbar To'raevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

2 kurs magistri E-mail: dxolbekova@gmail.com

90-965-02-54

Abstract

The article scientifically examines the role of the principles of peace and prosperity in our national spirituality. This is a creative idea that combines the content of the idea of peace and prosperity of the Motherland with the interests of everyone in the interests of the country, encouraging it to serve for the benefit of the people. Today, one of the most pressing issues is the education of young people in the spirit of love and devotion to the Motherland.

Key words: patriotism, humanity, dignity, kindness, compassion, interethnic harmony, religious tolerance.

Аннотация

В статье научно исследуется роль принципов мира и благополучия в нашей национальной духовности. Это созидательная идея, сочетающая в себе содержание идеи мира и процветания Родины с интересами каждого в интересах страны, побуждая ее служить на благо народа. Сегодня одним из самых актуальных вопросов является воспитание молодежи в духе любви и преданности Родине.

Ключевые слова: патриотизм, человечность, достоинство, доброта, сострадание, межнациональное согласие, веротерпимость.

Annotatsiya

Maqolada milliy ma'naviyatimizda yurt tinchligi va vatan ravnaqi tamoyilining o'rni ilmiy jihatdan o'rganilgan. Yurt tinchligi va Vatan ravnaqi g'oyasi mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir. Bugungi kunda yoshlarni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbilash eng dolzarb muammolardan biridir.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, insonparvarlik, qadr-qimmat, mehr-shafqat, hamdarlik, millatlaaro totuvlik, diniy bag'rikenglik.

Kirish. Vatanni anglash haqida SHarq va Farb allomalarining fikrlari milliy g'oya va o'zlikni anglash bilan chambarchas bog'liq. «O'zligingni, vataningni angla» shiori qadimgi yunon falsafasining o'zak masalasi bo'lib kelgan. Suqrotning ana shu «o'zligingni angla» hikmati donishmandlikning qoidasiga aylandi. Suqrot (mil.avv. 469-399)ning bu fikri 2,5 ming yillik oraliqqa ega bo'lsada, u o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Suqrot bir guruh kishilarning fitnasi tufayli fuqarolik me'yorlarini, yoshlar tarbiyasini buzganlikda ayblanib, o'lim jazosiga hukm etilgan edi. Suqrot o'z xalqi ommasining ibodat qilishiga qarshilik ko'rsatib, tilda bo'lsa, sayyoralarni huda deb atashdan bosh tortdi. SHuning uchun Afinaning o'n ikkilik qozisidan 11 tasi bir ovozdan uning o'ldirilishiga fatvo berdilar. Suqrot esa haq yo'ldan qaytmaganicha o'lib ketdi. Sudda 220 nafar odam Suqrotning aybsizligini yoqlab, 280 nafar kishi esa unga qarshi ovoz bergan.



Hadisda aytilganidek, «Kimki o'zligini tanisa, robbini taniydi». Kimki Vatan degan tushunchaning mazmun mohiyatini anglar ekan, demak shu Vatanning sodiq farzandlaridan hisoblanadi.

Vatanparvarlik tushunchasi insonparvarlik tushunchasi bilan uyg'undir. Vatanparvarlik uchun intilish, vatanparvarlik uchun kurashning zaminida insonparvarlik yotadi. Insonparvarlik bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. U purma'no va sermazmun tushunchadir. Insonparvarlik o'zbek xalqining ajralmas xislati tarzida ko'zga tashlanadi. Qur'oni Karim insonparvarlik g'oyalari asosiga qurilgan. Muhammad alayhissalom hadislari shu g'oyalarga boy hikmatlar majmuasi sanaladi.

Vatan - bu xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi. Xalqimiz Vatan ostonadan boshlanadi, deb bejiz aytmagan. Kishi ulg'aygan sari uning Vatan haqidagi tushunchasi ham kengaya boshlaydi, asta-sekin ostona, uy, mahalla, qishloq, shahar, tuman, viloyat, va nihoyat, mamlakat darajasiga ko'tarildi. Tushuncha va kechinmalar nuqtai nazaridan esa vatanparvarlik tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lib, tashqi muhit va davrlar ta'sirida shakllangan va o'zgarib kelgan ijtimoiy-ruhiy tuyg'udir.

Vatan ravnaqi g'oyasi mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir. U milliy istiqloqlning oliy maqsadi - O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi. Vatan g'oyasini amalga oshirishda: 1) ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, mahallaning mavqeini oshirish, aholini ijtimoiy himoyalash tamoyillari muhim hisoblanadi; 2) hayotda demokratik tamoyillarning ustuvorligi, muqobil partiyalar, jamiyatni erkinlashtirish, davlatning islohotchilik funksiyasi, aholi siyosiy ongi va madaniyatini oshirish zarur; 3) mulkchilikni shakllantirish, kichik va o'rta biznesni, tadbirkorlikni rivojlantirish kerak; 4) intellektual salohiyatni ko'tarish; 5) qonun ustuvorligiga erishish, huquqiy demokratik jamiyat qurish kabilar kiradi.

Mavzuga iod adabiyotlar sharhi (Literature review).

Xalq og'zaki ijodida mifologik obrazlar bilan birga afsonaviy qahramonlar obrazi ham yuzaga kelgan. Bu qahramonlar kishilarning osoyishtaligi va baxt-saodati uchun kurashib, fidokorlik ko'rsatadilar. Chunonchi, Gershasp va Elibek haqidagi afsonalarda ajdar va jinlarni enggan, o'limdan qo'rqmas, mard, bahodir, kishilarni halokatdan qutqaruvchi qahramonlar obrazlari tasvirlangan.

Qadim O'rta Osiyo aholisi yaratgan og'zaki adabiyot yodgorliklari orasida qahramonlik eposi katta va muhim o'rin tutadi. Ularda xalqimizning chet el bosqinchilariga qarshi vatanparvarlik kurashi asosiy o'rinni egallagan. Chunonchi To'maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovush haqidagi xalq og'zaki eposlarida vatanparvar va fidokor bahodirlarning monumental obrazlari yaratilgan [3, 69-b.].

«To'maris» eposida O'rta Osiyo aholisining chet el bosqinchilariga, xususan eramizdan avvalgi VI asrda bu o'lkaga bostirib kirgan eron ahmoniylari shohi Kirga qarshi massaget qabilalarining qahramonona kurashi aks etgan. Kir qo'shini tor-mor etilib, uning o'zi e.a. 529 yilda jang maydonida o'ldiriladi, kallasi tanasidan judo etilib, qon bilan to'ldirilgan meshga solinadi.

«Shiroq» eposi ham O'rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashini aks ettiradi. Vatanparvarlik va jasorat, vatan va o'z xalqi baxti-saodati yo'lida fidoyilik qilishga shay, tayyor turish kabi yuksak ma'naviylik sak qabilasining cho'poni Shiroq timsolida gavdalangan.

Yuqoridagi har ikkala xalq og'zaki ijodi namunalari zaminida haqiqiy tarixiy faktlar yotadi. To'maris va Shiroq xalq qahramoni bo'lib, o'z xalqi, Vatani uchun jonini ham ayamaydigan buyuk va betimsol mardlik va jasorat namunasi sanaladi. Ularga ham qoyil qolib havas qilamiz.

Markaziy Osiyoda ma'naviyat bilan birga ma'rifat ham rivojlangan. O'zbek xalqining turmush tarzi, mehnat faoliyati, o'zaro munosabatlari, hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, bir-biriga suyanishi, yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik, ota-onaning bolaga, bolaning ota-onaga hurmati, sadoqati kabi qadriyatlarini insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. O'zbek xalqi bir umr mehr-shafqatli bo'lgan, barchaga



yordam qo‘lini cho‘zgan. O‘zbek xalqi o‘zining insonparvarligini fashizmga qarshi kurash yillari etim bolalarning boshini silab o‘z tarbiyasiga olib yorqin namoyon etdi.

O‘zbek xalqi doimo umuminsoniyat dardini kuylab kelgan. Al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ibn Sino, az-Zamahshariy, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Ogahiy asarlaridagi g‘oyalar - insonparvarlik ruhi bilan ajralib turadi. Xususan, Navoiy ijodida insonparvarlik alohida ahamiyat kasb etadi. Uningcha, vatanga, xalqqa sadoqat eng avval uning taqdiri ustida g‘amxo‘rlikdan iboratdir.

Lekin turli qarash va fikrga ega bo‘lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o‘ziga xos maqsadlarini uyg‘unlashtiruvchi g‘oya - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati - barchamiz uchun birdek muqaddas bo‘lishi shart.

Tom ma‘noda mana shunday olijanob tuyg‘ular milliy g‘oya va milliy mafkuramizning ma‘no-mazmuniga, mana shu yurtda yashaydigan har qaysi insonning hayot dasturiga aylanishiga erishish darkor» [3, 58-b.]. YUrtimizda yashab ijod qilgan islom falsafasi namoyandalari imom Buxoriy, imom At-Termiziy, Ahmad YAssaviy, Abulqosim Zamaxshariy, Abduxoliq Fijduvoni, buyuk qomusiy olimlar - Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Ulug‘bek, mutafakkir shoirlar - YUsof Xos Hojib, Alisher Navoiy, ulug‘ sarkardalar va davlat arboblari Amir Temur, Bobur, Abdullaxon ijodida va amaliy faoliyat-larida erkin, farovon jamiyat g‘oyalari aks etganligi bejiz emas.

Forobiy fikriga ko‘ra, haqiqiy baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan jamiyat fozil jamiyatdir [4, 34-b.]. Forobiy «Aflotun qonunlari mohiyati» asarida fozil jamiyat konsepsiyasini bayon qilishni qonunlar haqida fikr yuritishdan boshlaydi. Uning fikriga ko‘ra, insonning xavfsiz yashashi uchun birgina farovonlikning o‘zi etishmaydi. Inson jasorati esa tashqi urushdagi jasorat emas, balki odamlarning o‘z illatlari ustidan g‘olib kelib, tinchlikni ta‘minlashlaridir. Demak, insonlarning o‘zaro munosabatlarini takomillashtirishga qaratilgan harakatidan farovon jamiyat sari intilishning ilk bosqichi kelib chiqadi.

Insonparvarlikning ko‘rinishlaridan biri bu insonni ulug‘lashdir. Inson tabiatning gultoji. U har qancha maqtovga loyiq zot sanaladi. Bu haqda Qur‘on va hadislarda, mutafakkirlar ijodida ajoyib, ibratli fikrlar aytilgan. Biz bu o‘rinda «Sharq Gegeli» degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan faylasuf shoir, mutafakkir Mirzo Abdulqodir Bedil so‘zlarini keltirish bilan cheklanamiz. Bedil insonni irqiy, milliy, diniy e‘tiqodlaridan qat‘iy nazar hurmat va ehtiromga sazovor zot deb biladi va bu haqda shunday deydi: «Har kimki, hazrati insonni sajdaga sazovor demasa, u mal‘undir». Qanday ajoyib fikr! Ushbu fikr har qanday davr uchun ham adolatli, ardoqli va olijanobdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Vatan tushunchasining qamrovi turli tarixiy davrlarda turlicha bo‘lgan, hududi ham hajman o‘zgarib turgan: goho toraygan, goho kengaygan, lekin bu o‘zgarishlar nisbiydir [5, 140-b.]. Ma‘lumki, Odam – Er farzandi. Uni Xalloqi a‘zam tuproqdan yaratmishdir.

Har bir odam, yaxlit olganda butun xalq, o‘z Vatanini chuqur bilsa, teran tomirlari qaerlarga borib etishi va tutashganini yaxshi anglasa, bugunini teranroq his etadiva qadriga etadi, kelajagini yorqin ko‘ra bildi. Vatan bu uy-joy, bola-chaqa. Boshqalarga esa to‘kin sochin yashash uchun qulay joy, undaylar uchun qaerda yashash oson bo‘lsa, o‘sha er Vatan. Butun Er yuzini Vatanim deb bilguvchi kimsalar ham bor, albatta. Ularni odatda kosmopolitlar deb ataydilar. Oddiy xalq tili bilan aytsak, ularni bevatanlar ham deyish mumkin.

Tarixiy Vatanini, ajdodlari xotirasini unutib yuborgan kimsalar, o‘zlari hozirda yashab turgan mamlakatlariga ham sadoqatli fuqarolar bo‘lolmaydilar. Chunki haqiqiy fuqaro bo‘lish uchun avvalo chin inson bo‘la olishi shart. Tarixiy Vatanni qo‘msash, insonning ma‘naviyatini belgilovchi asosiy omillardandir. Tarixiy Vatanini yodidan chiqargan odam yashab turgan joyining ham qadriga etmaydi.

Insoniyatning ko‘p ming yillik tarixi mobaynida oila, oilaviy munosabatlar juda katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Turli davrlar bularga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Mohiyati bir bo‘lsa-da, turli xalqlarda



oilaviy munosabatlar turli xil shakllarda namoyon bo'ldi. O'zbek oilalarida uch-to'rt, hatto besh avlod vakillari (ya'ni, bobo-buvilar, ota-onalar, farzandlar, nevaralar va chevarlar) o'zaro ahillikda, bahamjihat umr kechiradilar. Har bir bo'g'inning o'z burchi va mas'uliyati, o'z erki va mavqei bor. Kattalarni hurmat qilishdek milliy qadriyat, ba'zan yoshi va ilmi ulug'lar qolib, mansab va lavozimi yuqorilarga qulliq qilish kabi holatlarni e'tirof etmaydi. Ayni paytda, xalq tomonidan ko'rsatiladigan yuksak ehtirom keksalarga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Vatan hissi – muqaddas tuyg'u. Vatan hissi – shu Vatanning egasi bo'lmish xalqni bilishdan, uning qadriga etishdan, nimalarga qodir bo'lganini tan olishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. Hozirgi o'zbek vatanparvarligi xalqimiz taraqqiyotini olg'a siljitadigan ota-bobolarimiz yaratuvchanlik ishining bevosita davomidir. Biz o'z Vatanimizni sevamiz, u biz uchun bamisoli nafas olayotganimiz musaffo havo kabidir.

Tahlil va natijalari (Analysis and results).

O'zbekistondagi yoshlar ongida ma'naviy bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur [1, 115-b.].

Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin. SHu nuqtai nazardan Ushbu mavzuni har tomonlama o'rganish eng dolzarb muammolardan biridir.

Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini mustahkamlash istagi-umumiy taqdir va kelajak, O'zbekistonda yashaydigan barcha fuqarolarning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashni nazarda tutadi. Bu sohada ham hayotni yanada yuksak pog'onaga ko'tarilishga da'vat etadi. Bugungi hayotiy, zarurat ana shuni taqozo etmoqda. Har bir kishining farovonligi xalq farovonligi va faoliyatining asosidir.

Boqimandalik yoki soxta «umumiy tenglik» g'oyasiga asoslanib erkin va farovon hayot qurib bo'lmaydi. Dunyodagi birorta jamiyat bu yo'l bilan farovon hayotga erishgan emas. Erkin iqtisodiy faoliyatga asoslangan bozor iqtisodi, mulk xilma-xilliga tayanish, erkin va sog'lom raqobat muhitida o'rta mulkdorlar qatlami shakllanib boradi. Bu esa o'z navbatida ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishning sotsial negizi, ijtimoiy tayanchi hisoblanadi [6, 45-b.].

Bozor munosabatlari qaror topayotgan hozirgi kunda ba'zilar faqat yaxshi eb-ichish, kiyinishnigina o'z hayotlarining bosh maqsadi deb biladilar [2, 69-b.]. Bundaylar o'rtasida ko'zga tashlanib turuvchi iste'molchilik hol nisbatan “ziyonsiz” bo'lib tuyulgan ma'naviyat va axloqni mensimaslikdan boshlanib, oxir-oqibat qonunni chetlab o'tish, keyinchalik uni buzish va oyoq osti qilish kabi jamiyat uchun o'ta xavfli oqibatlariga olib kelishi tayin [8, 60-65-bb.].

Hozirda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini barqaror taraqqiyot manfaatlari asosida yo'lga qo'yishning nazariy-amaliy va ilmiy asoslarini ishlab chiqish talab etiladi. Ayniqsa, ijtimoiy jarayonlarni oldindan ko'ra bilish, uni prognozlash, zarur o'zgartirishlar kiritib, ularning samarasiga guvoh bo'lgach, olingan tajribalarni asta-sekin kengroq ko'lamda tadbiq etish ko'zlangan maqsadga olib kelishi mumkin.

SHunday ekan, hozirgi davrda ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini oldindan bashorat qilish, islohotlar uchun o'ta muhim yo'nalishlarni loyihalashtirish, modellashtirish katta ahamiyatga ega. Zero, ularning natijalari va xulosalari islohotni yuritish siyosatida katta yordam beradi.

Demokratik jamiyatning ustuvor qadriyatiga, uning barqaror taraqqiyoti omiliga aylantirish uchun adolatli jamiyat orzusi yo'lida insoniyat to'plagan tajriba va amaliyotni o'zlashtirish zarur. Bunda sharqona demokratiya tamoyillari tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ammo, inson tabiati ziddiyatlidir. U boshqalar intilishlariga teskari bo'lgan intilishlarga ega bo'lishi va shu vaqtning o'zida o'zgalalar bilan



hamkorlikka moyil bo'lishi mumkin. Inson tabiatiga xos ana shu qarama-qarshilik uning jamiyatdagi hayoti va xatti-harakatlarini ham belgilaydi. Odamlar bir tomondan shaxsiy erkinlikka intilsalar, ikkinchi tomondan ijtimoiy tenglikni talab qilishga moyil bo'ladilar. Odamlar o'z manfaatlarini ko'zlashlari bilan birga umumijtimoiy manfaatlarga ham intiladilar. Ana shu shaxsiy va jamiyat manfaatlarini qanday muvofiqlashtirish mumkin? Jamiyat bu muammoning echimiga demokratiya mexanizmlarini ishga solish orqaligina bajarishi mumkin. Demokratiya doimiy qutb: «ziddiyat - kelishuv - birdamlik» orqali o'ziga yo'l ochar ekan, kishilarning o'zaro roziligi, kelishuviga tayanadi. Demokratiya bu yolg'iz o'z maqsad va talablarini amalga oshirish vositasi bo'lmay, balki o'zaro manfaatlarning maqbul qoidalariga rioya etishdir. Umuminsoniy, xususan, demokratik qadriyatlarga tayangan milliy istiqloq g'oyasi ana shu qutbiy intilishlarni muvofiqlashtirish orqali umumiy manfaatlarni o'zida ifoda etadi [7, 34-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion / Recommendations).

Xulosa sifatida aytish joizki, o'zbek milliy qadriyatlari inson va millat hayotining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi. Milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar, xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik, mehmondo'stlik, oqko'ngillilik xususiyatlarini tavsiflash orqali ularni butun qadriyat darajasida o'ringa ega ekanligini unutmazlik lozim. Yoshlarni yurt tinchligi va Vatan ravnaqi yo'lida jonbozlik ko'rsatish, "Milliy tiklanishdan milliy uyksalish sari" dadil qadamlar qo'yish muqaddas burchu ekanligini unutmazligi kerak. Vatan, Uyt, Mas'uliyat, Sadoqat tushunchalarini boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga singdirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Холмуротова, Ш. М. (2022). АЁЛЛАР ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ДИАГНОСТИКАСИ. *Science and innovation*, 1(В3), 129-133.
2. Холмуротова, Ш. М. (2022). АЁЛЛАРДА ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОР ХУСУСИЯТЛАРИ ПСИХОПРОФИЛАКТИКАСИДА ДИНИЙ БИЛИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(6), 286-294.
3. Холмуротова, Ш. М. (2021). ЗНАЧЕНИЕ РЕЛИГИОЗНЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ ЛИЧНОСТИ В ДУХОВНОМ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ. *European science*, (3 (59)), 60-63.
4. Холмуротова, Ш. М., & Алмардонова, Г. Т. Қ. (2022). ҚИЗЛАРНИ МУСТАҚИЛ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ШАКЛ, МЕТОД ВА ВОСИТАЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(11), 375-383.
5. Холмуротова, S., & Adilova, S. (2022). ЕРИК БЕРННИНГ ТРАНЗАКСИОН ТАҲЛИЛИДАН ТУЗИЛМАВИЙ ТАХЛИЛ. *Science and innovation*, 1(В8), 391-393.
6. Холмуротова, Ш. М. (2023). МУҚАДДАС МАНБАЛАРДА АЁЛ ЎРНИНИНГ ПСИХОЛОГИК ШАРҲИ. *ТА'ЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ONLAYN ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 3(3), 85-88.
7. Холмуротова, S., & Adilova, S. (2023). SHAXS IJTIMOYLAHUVIDA RATSIONAL-EMOTIV PSIXOTERAPIYANING SAMARADORLIGI. *Interpretation and Researches*, 2(3). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/16>
8. Orifjonovna, A. D. (2022). Psychological Factors of the Use of Coaching Technology in the Formation of Spiritual Emotional Intelligence in Students. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(3), 215-218.
9. Aminova, D. O. (2021). THE EFFECT OF SOCIAL PROCESSES ON HUMAN CONSCIOUSNESS. *Экономика и социум*, (1-1 (80)), 30-32.



10. To'rahonova, M. (2023). BO `LAJAK O `QITUVCHILARNING KASBIY O `ZLIGINI ANGLASHINING PSIXOLOGIK OMILLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(3), 54-59.
11. Kizi, M. T. A. (2022). Solutions to the problem in the development of intellectual property of modern educational technologies.
12. Бозорова, М., & Турахонова, М. (2021). РОЛЬ ЭТНОПЕДАГОГИКИ В ПРОЦЕССЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ. Энигма, (32), 82-86.
13. Xushboqov, Q. (2022). BIR YOZUVDAN IKKINCHI YOZUVGA O `TISHDAN TARXIY SABOQ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 306-310.
14. Qobilbek Shokirovich Xushboqov (2022). O`ZBEK KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI BORASIDAGI TURLI QARASHLAR. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (5), 385-391.
15. Djoraevich, E. B., Shokirovich, K. K., Shodievna, K. K., & Gayratovna, Y. G. A Commentary on a Poem. International Journal on Integrated Education, 4(3), 122-125.
16. Xushboqov, Q. (2022). BIR YOZUVDAN IKKINCHI YOZUVGA O `TISHDAN TARXIY SABOQ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 306-310.
17. Xushboqov, Q. S. (2022). O `ZBEK KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI BORASIDAGI TURLI QARASHLAR. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 385-391.
18. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Murodullayeva Zaytuna Abdulloyevna. (2023). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA`NAVIY TARBIYA HAQIDAGI TA`LIMOTLARI . Journal of Universal Science Research, 1(5), 340–351. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/665>
19. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Saparova Shalola Sheraliyevna. (2023). ABDURAUFI FITRATNING “OILA” ASARIDAGI MA`NAVIY-AXLOQIY QARASHLARI. Journal of Universal Science Research, 1(5), 352–362. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/666>
20. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Pardayeva Sevara Abdunosir qizi. (2023). 1-4-SINF O`QUVCHILARIDA MA`NAVIY TARBIYA INDIKATORLARINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI. Journal of Universal Science Research, 1(5), 363–373. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/667>
21. Абдуразаков, Ф. (2022). У^ УВ МАШЕУЛОТЛАРИДА У^ УВЧИЛАРНИНГ НОТИЦЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ.
22. Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyeovich. (2023). OLIY TA`LIM MUASSASASI TALABALARIGA TARBIYA BERISHDA PEDAGOG NUTQI. *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 16–23. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/396>
23. Jumaevich, K. K., & Abdullajonovna, A. G. (2021). Technology of Cooperation in the Formation of Spiritual and Moral Education of Young People in Society and Its Qualimetry. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 7062-7068.
24. Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). FORMATION OF EDUCATIONAL CONCEPTS RELATED TO ENTREPRENEURSHIP AND SAVING IN THE LABOR PROCESS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 152-156.
25. Jumaevich, K. K., Ergashovich, P. A., & Ismailovich, A. A. (2021). Development of Young Generation In The Spirit of National Ideas in The Process of Spiritual and Moral Education. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2173-2188.



26. Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). Family Cooperation Technology in the Formation of the Concepts of Entrepreneurship and Savings in Primary School Students. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 7069-7076.
27. Д. М. Бобоқулова (2021). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ТЕЖАМКОРЛИК ВА ИҚТИСОДИЙ ТАРБИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2 (NUU Conference 1), 204-207.
28. Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). Problems of entrepreneurship, economy and economic education in the pedagogical heritage of eastern Thinkers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 565-572.
29. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. *Vatan tuyg'usi*. – Toshkent, O'zbekiston, 1996.
30. *Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar*, -Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2001.
31. Ergashev I. va boshq. *Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik*. - Toshkent: Akademiya, 2005.
32. Bahridin o'g'li, O. F. (2023). MILLIY HUNARMANDCHILIKNING MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH (1-4-sinflar misolida). *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 507-514.
33. Xudayqulov, X., & Odinaboboev, F. (2022). ПЕДАГОГИК МОДУЛЛИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТАРАҚҚИЁТНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАР. *Science and innovation*, 1(B7), 960-967.
34. Odinaboboyev Fazliddin Bahridin o'g'li. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH. *Scientific Impulse*, 1(9), 136–141. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/7673>
35. Baxridin o'g'li, F. O., Abdunabiyevich, F. A., & Norbo'Tayevna, N. D. (2022). IMPROVING VOCATIONAL EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BY DEVELOPING PRIMARY MECHANISMS OF NATIONAL CRAFTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 577-580.
36. Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi, Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi, & Shuhratova Dilfuza. (2023). NUTQ MADANIYATI. *Journal of Universal Science Research*, 1(3), 164–167. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/347>
37. qizi Xushbaxtova, D. J. (2022). SHEROBOD DOSTONCHILIK MAKTABINING SHAKILLANISH TARIXI VA TARAQQIYOT TAMOYILLARI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(4), 48-52.
38. Akbar To'raqulov Rustam o'g'li, & Zaripova Barchinoy Abdumajit qizi. (2023). MILLIY O'QUV DASTURIDA HAYOTIY KO'NIKMALARNING SHAKLLANISHI. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 513–517. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/696>
39. To'raqulov Akbar Rustam o'g'li, & Esanova Marjona Absalom qizi. (2023). MILLIY O'QUV DASTURI VA XALQARO BAHOLASH DASTURI: YANGI DARSLIKLARNI ISHLAB CHIQUISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBANING AHAMIYATI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(1), 62–65. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/105>
40. To'raqulov Akbar Rustam o'g'li, & Sanjar Xudoyberdiyev. (2023). STEAM TA'LIM TIZIMI AFZALLIKLARI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(1), 58–61. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/104>

